



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RSIDA

Mo'minova Nilufar Abduvaxobovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti

Annotatsiya.

Maqolada Alisher Navoiy ijodi va o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining yuksak bog'ichini ochib berish, O'zbekistonda navoiyshunoslikning yangi pog'onaga ko'tarishga xissa qo'shgan o'zbek adabiyotshunosligining jonkuyarlaridan bo'lgan professor Abdurahmon Sa'diyning ijodini tahlil etishdan iborat. Shuningdek, Abdurahmon Sa'diy ilk bor Navoiy shaxsiga, uning hayotiy faoliyatiga chuqurroq yondashdi, ushbu mavzudagi avvalgi tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklarini ro'y-rost ko'rsata oldi, shoir ijodini mukammal va batafsil tavsiflashga urindi.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, Abdurahmon Sa'diy, «Majolisu-n-nafois», «Muhokamatu-l-lugatayn», «Xamsa».

Аннотация.

В статье рассматривается творчество Алишера Навои как высшее звено развития узбекской классической литературы, а также анализируется вклад профессора Абдурахмона Саъдия - одного из энтузиастов узбекского литературоведения, внесшего значительный вклад в поднятие науки о Навои на новый уровень. Кроме того, Абдурахмон Саъдий впервые глубже подошёл к личности Навои, его жизненной деятельности, сумел откровенно показать достижения и недостатки предыдущих исследований, и попытался дать полное и детальное описание творчества поэта.

Ключевые слова:

Алишер Навои, Абдурахмон Саъдий, «Мажолис-у-н-нафоис», «Муҳокамату-л-лугатайн», «Хамса».

Abstract.

The article explores the creative legacy of Alisher Navoi as the pinnacle of Uzbek classical literature and analyzes the contribution of Professor Abdurahmon Sa'diy, one of the devoted scholars of Uzbek literary studies, who played a significant role in elevating Navoi studies to a new stage. Furthermore, Abdurahmon Sa'diy was the first to approach Navoi's personality and life activity more profoundly, openly highlighting the achievements and shortcomings of earlier research, and striving to provide a comprehensive and detailed description of the poet's works.

Keywords:

Alisher Navoi, Abdurahmon Sa'diy, "Majolisu'n-nafois", "Muhokamatu'l-lugatayn", "Khamsa".

O'zbek adabiyoti nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan A.Sa'diy nainki zamonaviy o'zbek adabiyoti, balki o'zbek adabiyotining shakllanish tarixi haqida ham chuqur fikr-mulohazalar yuritgan va bu haqda ilmiy jihatdan yetarli darajada asoslangan tadqiqotlar olib borgan olim edi. Zero, o'z millati, o'z xalqi uchun yashab ijod etgan mutafakkirlar ijodi har qancha ardoqlanishga loyiqdir. Bu urinishlar natijasida Sharq tarbiya va falsafa maktabining yetakchi namoyandalari to'g'risida qator maqolalar yaratildi. Jumladan, «Forobiy», «Yassaviy kim edi?», «G'azzoliy», «Rog'ib Isfahoniy», «Ibn Miskavayh» kabi maqolalari Sharq falsafasi va uning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bilan mushtarak jihatlarini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qildi. Ularda allomalar yaratgan merosning mohiyati, qadr-qimmat va ularning shaxsiyati, hayoti, faoliyati, olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Mazkur maqolalar Sharq mutafakkirlari to'g'risidagi mazmunli va katta hajmdagi maqolalar sifatida jamoatchilik e'tiborini tortgan bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligi tarixida o'z ilmiy ahamiyatiga ega.

Abdurahmon Sa'diyning «Adabiyot olimi ham tanqidchi sifatida - Mir Alisher Navoiy»[1], «Navoiy lirikasi va nashr etilgan "Chor devon"i haqida», «Xalq ijodiyatining Navoiy asarlarida aks etishi», «Navoiyning ijodiy yo'li va gumanistik ideali»[2] kabi maqolalari uning «Alisher Navoiy ijodi - o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining muhim bosqichi» mavzusidagi

doktorlik dissertatsiyasini yaratish yo'lidagi ilk qadamlardan biri bo'ldi. Olim birinchilardan bo'lib Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodini yaxlit o'rganishga bel bog'ladi. Garchi avvalroq ba'zi bir maqolalarida («Adabiy-tarixiy savodsizlikka qarshi») A.Sa'diy Navoiyni «ham nasliy urug'ga, ham tili jihatidan hatto o'zbek bo'lmagan, balki chig'atoy yoki uyg'ur bo'lgan», deb ta'riflagan bo'lsa-da, keyinchalik uning o'zbek adabiy tilining asoschisi ekanligi qayta-qayta ta'kidlandi. Uning buyuk shoir ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari ilmiy o'zanga tushdi. Faoliyatining ko'p qismida A.Navoiy merosini tahlil va talqin qilish, uning asarlarini xalqqa yetkazish bilan mashg'ul bo'ldi. Navoiy ijodi, deb atalgan ummondan birinchilar qatorida bahramand bo'lish A.Sa'diy qatoridagi navoiyshunoslarga oson kechgani yo'q. Ular oldida mas'uliyatli, sharaflı, shu bilan birga mushkul vazifa - tazkira va tarixiy asarlardagi Navoiy ijodiga oid ma'lumotlardan boshqa manba yo'qligi sharoitida mazkur ijodiy merosga yetarlicha baho berish vazifasi turar edi. Bir tomondan, mashhur sharqshunos olimlar V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, ikkinchi tomondan A.Sa'diy, Fitrat singari o'zbek adabiyotshunoslari qizg'in ish boshladilar. Ularning mehnatlari samarasi sifatida bugungi kunda o'quvchilar murakkab, shuning barobarida fasohatli Navoiy xazinasidan bahramand bo'lmoqdalar.

«Adabiyot olimi ham tanqidchi sifatida Mir Alisher Navoiy» maqolasi A.Sa'diyning katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha, A. Navoiyning tarixiy xizmati, eng avvalo, uning shoirliği va san'atkorliği bilan belgilanadi. «Hayratu-l-abror», «Farhod va Shirin», «Laylā va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandarī» dostonlaridan iborat «Xamsa»si, g'azallari va «Lisonu-t-tayr» asari uning yuksak san'atkorlik qobiliyatidan dalolatdir. Garchi ular buyuk ijodkorlar - Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Fariduddin Attor ijodidan shablon olib yaratilgan bo'lsa-da, A. Navoiyning muvaffaqiyati shundaki: u xalq ijodi - afsona, masal, ashula, latifa va aforizmlardan unumli foydalanib, o'z badiiy mahoratini namoyon eta olgan. Bundan tashqari, A.Sa'diy A.Navoiyni «Muhokamatu-l-lug'atayn», «Majolisu-n-nafois», «Mezonu-l-avzon» singari tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid asarlari bilan o'zini adabiyot olimi va munaqqid sifatida namoyon etganini ta'kidlaydi. Bu tanqidiy asarlari bilan Navoiy o'z zamonidagi va undan keyingi davrlardagi o'zbek adabiy harakatida jiddiy ish ko'rsatdi, kuchli ta'sir yaratdi. Ikkinchi tomondan, bu asarlari bilan u feodalizm davri o'zbek adabiyoti tarixi uchun eng birinchi qo'llanmalarni, original va qadrli xazinalarni taqdim etdi. A.Sa'diy fikricha, Navoiyning «Majolisu-n-nafois» asari XV asr o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan adabiy-tarixiy «ocherklar»dan iborat bo'lib, unda turli millat vakillari orasida bo'lgan san'at ahli to'g'risida ham tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Maqola «Navoiy - murakkab shaxslardan biri», «Adabiyot olimi ham tanqidchi sifatida adabiy harakatdagi rahbarliği», «O'zbek adabiy tilini nazariy asoslantirib beruvchi», «Adabiyot bilimiga oid masalalarda Navoiyning nazariy fikrlari» kabi ilmiy tezislarni ilgari suradi. Munaqqid Navoiydek murakkab ijodiy shaxsiyat egasining faoliyatini har tomonlama o'rganish bilan birga, uning «murakkablik sirlari»ni ham kashf etib boradi. Mazkur ma'lumotlar shunchaki hikoya bo'lib qolmasdan, ularning adabiy qimmati beqiyosdir. A.Navoiy tarixiy faktlarga qo'shimcha tarzda adabiyot olimi va munaqqid sifatida o'z fikr-mulohazalarini o'rtağa tashlaydi. Maqola muallifi A.Navoiyning «Muhokamatu-l-lugatayn» asari bilan o'zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, har ikki tildan keltirilgan ko'p misollar orqali o'zbek adabiy-badiiy tilining lug'at, ifoda kengligini ochib berganligini, tilshunoslik sohasida mustaqil izlanishlar olib borib, o'z salohiyatini ko'rsatganligini ta'kid etadi. Bu asar orqali Navoiy «adabiyot olimi va tanqidchi sifatida o'zbek tilining zo'r badiiy ijodlarga imkoniyat beruvchi lug'at, ifoda va stilistik boyligini birinchi marta ochib berdi, shuni nazariy jihatdan yuksaltirishning o'zi birinchi qadam bo'ldi», - deyiladi. Shu

bilan birga Alisher Navoiy rahbarlik qilgan adabiy harakatlar to'g'risida ham batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetovning fikricha, muallifning Alisher Navoiy adabiy tanqidchiligidan Navoiygacha bo'lgan adabiy tanqidchilikdan yuqori ko'tarila olgani, Navoiy tanqidchiligidan nazariy asoslari, Navoiyning o'z zamondoshlariga munosabati, uning adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan asarlar yuzasidan birinchi bo'lib qimmatli fikrlarni qayd etgani bilan mazkur maqola katta ahamiyatga ega. Lekin u ayni paytda qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, A.Sa'diy Navoiy ijodining yuksalishida Navoiygacha yaratilgan o'zbek yozma adabiyotining katta rolini to'liq ko'rsata olmagan.

Bizning fikrimizcha, "Adabiyot olimi va tanqidchi sifatida Mir Alisher Navoiy" maqolasi o'zining keng ko'lamliligi, tarixiy faktlarga boyligi bilan muallifning boshqa maqolalaridan ajralib turadi. Umuman olganda, buyuk shoir ijodiga bag'ishlangan barcha maqolalar A.Sa'diyning kelgusida yirik tadqiqot ishlarini olib borishida poydevor bo'ldi. "Navoiy - adabiyotshunos ham munaqqid sifatida" maqolasida u nafaqat she'riyatda, balki adabiyotshunos va tanqidchilik tarixida ham chuqur iz qoldirgan siymo sifatida tasvirlanadi. Navoiy nafaqat badiiy ijod sohasida, balki adabiyotshunoslik ilmining taraqqiyotida ham o'ziga xos "demokratik" qarashlarga ega ekanligini ko'rsatish uchun yunon va arab adabiyotshunoslari bilan taqqoslaydi va ulardan ustun jihat sifatida "Navoiy - adabiyotning ijtimoiy pafosi, ijod metoda, mundarija va shaklning bir-biriga munosabati masalasi kabilarda o'z nazariy qarashlariga ega ekanligini so'zlaydi: «Umuman, arab va fors adabiyoti bilimi shu bilimning poetik qismida to'xtab qoldi. Ammo Navoiy undan o'tib, fikrini adabiy fanning eng asosiy qismiga, uning metodologiya nuqtasiga tomon yo'naltirdi». «Muhokamatul-lug'atayn», «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon» asarlari mazkur faoliyatlarning natijasi sifatida vujudga kelgandir. «Bu asarlar biz uchun qimmatbaxo boylikdir, ular o'sha davr adabiyoti tarixini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladilar. Navoiyning adabiyotshunoslik va tanqidiy asarlari haligacha o'rganilmagan. Bu maqolani yozishdan maqsad - bu sohadagi bo'shliqni to'ldirishdir».

A.Sa'diy boshlab bergan yo'l navoiyshunoslarimiz tomonidan davom ettirildi. 50-yillarning oxiriga kelib, Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini maxsus o'rgangan tadqiqot yuzaga keldi. «Navoiyning ijodiy yo'li va gumanistik ideali» maqolasida o'zbek xalqining eng buyuk shoiri bo'lgan Alisher Navoiy «Xamsa»sining o'ziga xosligi haqida so'z yuritilib, muallif ba'zi bir turkolog va sharqshunoslarning fikrlari xato ekanini tasdiqlaydi. Shoir «Xamsa»sida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy asarlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qilganligi, uning mukammal bo'lishi uchun ularning xatolari katta saboq bo'lganligini bildiradi. Mazkur maqola ilk bor Navoiy «Xamsa»si bilan uning salaflari «Xamsa»sini ilmiy qiyoslaydi va farqlarini ko'rsatib beradi: «O'z tomonidan masalalarning qo'yilishi va ularni oydinlashtirish metodi bo'yicha Alisher Navoiy - Nizomiy, Xusrav va Jomiylarga qaraganda ko'p darajada praktik va realistik xarakterdagi shoir (poemalari ustidagi adabiy tanqidlari ham shuni tasdiqlaydi)».

1948 yilda Abdurahmon Sa'diy «Alisher Navoiy ijodi - o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining yuqori bosqichi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. A.Sa'diy dissertatsiyasi[3] 7 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, u quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Navoiyga doim taqdim qilinadigan «O'zbek tili va adabiyotining asoschisi» atamasini qanday tushunish kerakligini aniqlashtirish. Bunda muallif tarixiy va adabiy faktlarga

asoslangan holda uning o'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotining asoschisi ekanini isbotlashga harakat qiladi.

2. Navoiy ijodining progressiv jihatlarini, birinchi bunda muallif tarixiy va adabiy faktlarga asoslangan holda, uning o'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotining asoschisi ekanini isbotlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, u ilgari surgan gumanistik g'oyalarni izohlash,

3. Navoiy estetik qarashlarini zamondoshlarining adabiy-tanqidiy qarashlari bilan solishtirishga harakat qiladi.

4. Alisher Navoiy ijodiy yo'lini belgilab olish,

5. Uning lirikasi, birinchi navbatda, g'azallari tahlili. Muallif ularni g'oyaviy, badiiy va til xususiyatlari jihatidan tekshirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

6. «Xamsa» asaridagi asosiy obrazlar xarakteristikasi.

7. Navoiy ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi.

Ish muqaddima qismining o'zi ikki katta bo'limdan tashkil topgan:

a) Navoiy yashagan davr xarakteristikasi, hayoti va uning asosiy davrlariga oid qisqacha ma'lumotlar;

b) Navoiyning falsafiy qarashlariga mu'tazila ta'limotining ta'sirini isbotlashga urinish.

A.Sa'diygacha Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha xorijiy sharqshunoslardan M.Belen, E. Bloshe va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan, ammo ular shoir ijodini noto'g'ri talqin etgan edilar. Professor A. Borovkov ham «Ulug' o'zbek shoiri» to'plamidagi «Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish» maqolasida mazkur olimlarning talqinlariga to'xtalib, ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirib o'tgan edi. Sharqshunos olim V. V. Bartoldning «Mir Alisher va siyosiy hayot» asarida ham Navoiy poetik ijodining originalligi inkor qilinishi mavjud. Uning ijodini o'ziga xos tarzda baholagan olimlardan biri M.Nikitskiy «Nizomaddin - davlat arbobi va ijodkor sifatida» (1856) asarida Navoiy faoliyatini ijobiy tarzda baholadi, ammo u haddan tashqari to'liq tasavvur bera olmadi.

1938 yili Navoiy tavalludining 497 yilligi munosabati bilan katta miqyosda yubiley o'tkazildi va buyuk shoir tavalludi katta bayram sifatida nishonlandi. 20–30-yillarda A.K.Yakubovskiy, Ye.E.Bertels, A.K.Borovkov, A.A.Semyonov, Fitrat, S.Lunyov, O.Sharafiddinov va boshqalar Navoiy davri, hayoti va ijodini daxldor tarzda o'rganishga bel bog'ladilar. Ulardan keyinroq Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Izzat Sulton, Vohid Abdullaev va boshqalar ham bu borada qimmatli ma'lumotlarni berishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin bir tizimga solingan, Navoiy ijodiy faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqot hali yaratilmagan bir davrda A.Sa'diyning «Alisher Navoiy - o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining yuqori bosqichi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgani va bu tadqiqot bilan ulug' shoir faoliyatiga baho berishda o'ziga xos yo'nalish yaratgani e'tirofga loyiq.

A.Sa'diy Alisher Navoiyning murakkab kechgan hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda uni uch bosqichga ajratishni taklif etadi:

1. Alisher Navoiyning Abulqosim Bobur hukmronligi paytidagi davri (Xuroson, 1453–1457 yillar);

2. Abu Saidning Xuroson va Movarounnahrda hukmronligidagi davri (1457–1469 yillar):

a) Alisherning madrasada tahsil olishi (Mashhad, 1457–1466);

b) Ijodiy izlanishlar davri (Samarqand, 1466–1469);

3. Husayn Boyqaro hukmronligi ostidagi davri (Hirot, 1469–1501).

Bu vaqtga qadar Navoiy hayoti va faoliyatini alohida bosqichlarga bo'lib o'rgangan V.V.Bartold, O.Sharafiddinov asarlarida Navoiy hayotini davrlashtirishda jiddiy kamchiliklar kuzatilib, ularni qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, V.V.Bartold tomonidan Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga raqib sifatida talqin etilishi jiddiy tanqid ostiga olinadi. A.Sa'diyning ilmiy tadqiqot ishiga mashhur sharqshunos olim Ye.E.Bertels yozgan taqrizida e'tirof etgan ediki, dissertant V.V.Bartoldning «Mir Alisher va siyosiy hayot» kitobida bildirilgan fikrlarni inkor qiladi. Olim nuqtai nazaricha, Navoiy va uning Sulton Husayn saroyidagi raqiblari o'rtasidagi kurash progressiv va konservativ guruhlar kurashidir. Ye.E.Bertels buning to'g'riligini qayd qilgani holda, bu oqimlarning mohiyatini muallif ochib bera olmaganini aytadi. Navoiyning nima sababdan vazir Majdiddin (Ye.E.Bertels buning aslida Majd-ad-din ekanini ta'kidlaydi) bilan tortishuvlari sababi nimada ekani izohlanmaydi.

Oybek o'zining «Navoiy hayoti va faoliyati davrida» maqolasida bu ismni Mujiddoddin tarzida qo'llaydi. «Majdiddinni yomonga chiqarish kerak emas», - deydi Ye.E.Bertels, - «ammo nima uchun Jomiy unga ochiqdan-ochiq xayrixohlik bildirgan, hatto sulton oldida uning aybini kechirishni so'ragan degan savol tug'iladi».

Biroq A.Sa'diyning yozishicha, A.Jomiy vazir Majdiddin bilan yaqin aloqada bo'lgan. Uzoq vaqt Husayn Boyqaro Majdiddinni vazirlik mansabida ushlab turishining sababini ham Jomiy bilan aloqadorligidan deb yozadi. Shunga qaramay, Majdiddinning qilmishlari fosh etilgach, uni qatl ettirgan Husayn Boyqaro qarib qolgan ustoz Jomiyga kech qanday ta'sir o'tkazgani yo'q.

Tadqiqotning I bobining 2-bo'limida Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari tahlil etilgan. Biroq muallifning ta'kidlashicha, mazkur dissertatsiya Alisher Navoiy falsafiy qarashlarini batafsil va to'la talqin qilishni o'z zimmasiga olmagan, faqat dissertatsiya mavzusi doirasidagina Navoiy falsafasining ayrim jihatlarini aks ettirilganini aytadi. Ayni bobda Alisher Navoiy tomonidan qadimgi yunon faylasuflari ijodini, ayniqsa Arastu doktrinasini ta'limotini to'la o'rgangani qayd etiladi. Yunon falsafasidan so'ng Forobiy va Ibn Sino ta'limoti bilan Navoiy falsafiy qarashlari o'rtasidagi yaqin jihatlarni tahlil etgani, shuningdek, Mu'tazila falsafasi bilan Navoiy ijodini bog'lashga harakat qilgani ko'rsatiladi. Mu'tazilalar falsafasiga ko'ra, «Qur'on» yaratilgandir. A. Sa'diy talqinicha, Alisher Navoiy asarlarida mana shu ta'sirning izlarini kuzatish mumkin.

Ikkinchi bobdagi «Navoiy - o'zbek adabiy tilining asoschisi» bo'limiga jiddiy e'tirozlar bildirilmaydi. Taqrizchi fikriga ko'ra, A. Sa'diy Navoiyni zo'rlab o'zbek tilida gapirtirishga harakat qiladi, holbuki Navoiy bu atamalarni bilmagan. U o'z tilini turk tili deb atagan. Bu yerda eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili o'rtasidagi farqlarni aniq va ravshan yoritib berish kerak edi. Shunda bu bo'limning asosiy mohiyati ochib berilgan bo'lar edi. Olim A.Sa'diyning Navoiy lirikasidagi iztiroblarni chin deb qabul qilganini tushuna olmaydi. Uning fikricha, shoirning muhabbat lirikasida realizmi elementlari yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Agar bunday xulosaga kelinsa, bu Navoiy uchun takabburlikdan voz kechganday bo'ladi. U nafaqat Olloh vasliga yetishishni orzu qilgan, balki yerdagi yor firoqida ham lirik uqubatlar bitgan.

Bobning ikkinchi bo'limi Navoiy ijodining progressiv jihatlariga bag'ishlanadi. Navoiyning dunyoqarashi xalq qo'zg'olonlari ta'siri ostida shakllangani haqidagi fikr Ye.Bertels e'tiroziga sabab bo'ladi: «Unda, - deydi sharqshunos, - Navoiydan inqilobchi chiqishi kerak ekan-da. Navoiy gumanizmi Islomning ortodoksial dogmatikasiga qarshi emas. Chunki o'sha zamon nuqtai nazaridan qaralganda, Navoiy dinga qattiq ishongan haqiqiy musulmon edi»[4]. Professor A.Sa'diy Navoiy erishgan yutuqlarni tavsiflar ekan, u formalizmga qaqshatqich zarba

bergan, deydi. Navoiy go'zal badiiy asarlar bitgan, lekin adabiyotda inqilob yasay olmagan. Shunday qilib, poeziyadagi eski uslub undan keyin kam saqlanib qolgan.

A.Sa'diy Navoiy poeziyasi va prozasini bir-biri bilan solishtirib, poeziyani yuqori qo'yganligini va nima uchun bunday xulosaga kelganini izohlaydi. Shayxlarni qoralash Navoiygacha bo'lgan adabiyot uchun ham yangilik emas. Bundan shoirning tasavvuf ta'limotiga qarshi borganligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki Navoiyning so'fiy shoir Abdurahmon Jomiyga bo'lgan yuksak sadoqati va so'fiylik falsafiy ta'limotiga katta e'tibor qaratgani yaxshi ma'lum. Nizomiyning «Mahzan-ul-asror» dostoni kichik hikoyalardan tashkil topgan emas, unda 20 ta zo'r mazmunli qissa kiritilgan. Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonini A.Sa'diy tomonidan «Yeti sayyoh» deb tarjima etilishiga kam sonli taqrizchilar e'tiroz bildirgan va uni «Yeti sayyora» deb berish lozimligini ta'kidlashgan.

Navoiy lirikasi tahliliga bag'ishlangan bo'limda A.Sa'diy shu kungacha Navoiy lirikasiga bag'ishlangan jiddiy tadqiqot ishlari bo'lmaganini eslatib o'tadi. U Saltikov-Shedrin nomidagi Leningrad Davlat kutubxonasida 1465–1466 yillarga oid mashhur xattot - Sulton Ali Mashhadiy qo'li bilan yozilgan Navoiy g'azallari qo'lyozmasi (shifr: Voet. 564) tahlil qilinadi, ya'ni buni Navoiy 24–25 yoshlarida yozganligi haqida ma'lumot bor. Qo'lyozmada faqat uning yoshlikda bitgan she'rlari mavjuddir. Bu shuni ko'rsatadiki, to'rt devonni kechikib tahrir qilish natijasida ilk g'azallarining kattagina qismi keksalik davrida yozilgan g'azallar jamlangan to'rtinchi devonga tushib qolgan. Ikkinchi bobning oxirgi bo'limi Navoiy "Xamsa" sining obrazlar olamiga bag'ishlanadi. Ye.E.Bertels faqat Farhodga berilgan "xalq baxti uchun kurashchi" tavsifiga tushunavera olmaydi: "Bu undagi kurashchanlikni bo'rttirib ko'rsatishdan boshqa narsa emas. Mazkur o'rinda so'fiylikda va so'fiylik poeziyasida katta rol o'ynaydigan, musulmon dunyosi she'riyatida "shoh-gado" antitezisi haqida eslash kerak emasmikan?" - deb e'tiroz bildiradi. Taqrizchining fikricha, Navoiyning yunon olimlari asarlarini yaxshi bilishi haqida gapirishning asosi yo'q. Masalan, Nizomiy Platon va Aristotel asarlarini (nazarimizda, arabcha tarjimasida) o'qigan, lekin Navoiy bu faylasuflarning asarlarini o'qib chiqqanligi yuzasidan dalil ham, isbot yo'q. Taqrizchi A.Sa'diyning Navoiy ijodidagi xotin-qizlar obrazining muhimi ahamiyati to'g'risidagi fikrlariga ham to'xtalib, ilk marotaba katta hajmdagi dostonlarda ayolni markaziy o'ringa qo'ygan ijodkor - buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy bo'lganini esga oladi. "Professor A.Sa'diy singari Dilorom obrazida xalq qizining timsolini ko'radi, dostonida bu nega dalil bilan berilmaganini, bundan tashqari, u qul sifatida ham tasvirlanmaganini" ta'kidlaydi. O'sha vaqtlarda taniqli shaxslarning qullari ham qulga aylanib qolishlari mumkin edi. Albatta, uning o'z xo'jayini - quldor bilan kurashmagani achinarli hol. Lekin o'sha vaqtda Navoiyning dullarni isyonga chorlaganiga ishonish mumkinmi? Axir, Navoiyning o'zi ham bir qancha dullarga ega edi. Bu yerda muallif yana tarixiy perspektivadan chalg'ib ketadi. Demak, Ye.E.Bertels fikrlarini umumlashtiradigan bo'lsak, "Sab'ai sayyor" dostonining asosiy qahramonlaridan bo'lgan Diloromda xalq timsolini ko'rish maqsadga muvofiq emas. A.Sa'diy Navoiy butun ijodi bilan xalq baxt-saodati uchun kurashuvchi inson tasvirini yaratishga intilgan, adolatparvar, raiyatparvar shoh mamlakatni idora qilishni orzulagan, u milliy doirada chegaralanib qolmagan, kishilik ufqiga ko'tarila oldi, deydi. Bu adabiyotshunosning Navoiy asarlarini mukammal o'rganib, uni insonparvar shoir sifatida ko'ra bilganidan dalolatdir.

Ye.E. Bertels fikricha, ushbu qism kengaytirilganda, ish to'laqonli doktorlik dissertatsiyasi talablariga javob bera olardi va uning "Alisher Navoiy hayoti va ijodi"ga bag'ishlangan eng mukammal ishlaridan biri bo'lib qolishiga ishonch bildirib qoladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'zbek adabiyotshunosligining jonkuyarlaridan bo'lgan professor Abdurahmon Sa'diyning «Alisher Navoiy ijodi - o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining yuksak bog'ichi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi O'zbekistonda navoiyshunoslikning yana bir baland pog'onaga ko'tarilganidan, buyuk shoir hayoti va ijodini o'rganish o'z davrining dolzarb masalalaridan biriga aylanganidan dalolat beradi. A.Sa'diy ilk bor Navoiy shaxsiga, uning hayotiy faoliyatiga chuqurroq yondashdi, ushbu mavzudagi avvalgi tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklarini ro'y-rost ko'rsata oldi, shoir ijodini iloji boricha mukammalroq va batafsilroq tavsiflashga intildi. Ishning o'ziga xos jihati shundaki, olim Navoiyni o'z yashagan muhitdan uzib olmadi, balki uni zamondoshlari va davri bilan hamnafaslikda o'rgandi. Bunda tarixiy va adabiy faktlar yordamida Navoiyning o'zbek adabiy tilining asoschisi ekanligi ilmiy tarzda isbotlandi. "Xamsa"dagi asosiy qahramonlar tavsifi, estetik qarashlarining umumiy va farqli jihatlari, uning ijodiy yo'li, g'azallarining poetik uslubi va eng asosiysi - Navoiy ijodi o'zbek va tator adiblariga qariyb namuna sifatida xizmat qilganligi asosli misollar bilan isbotlab berildi. Mazkur ish Navoiy dahosi "o'zbek" degan nom bilan yonma-yon turishini, uning ulmas merosini o'rganish kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatli burchlardan biri ekanligini isbot qilib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саъдий А. Адабиёт олими ва танқидчи сифатида Мир Алишер Навоий // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. — 1938. — № 11, 12.
2. Саъдий А. Навоийнинг ижодий йўли ва гуманистик идеали // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. — 1939. — № 4.
3. Творчество Навои как высший этап узбекской классической литературы (Докторская диссертационная работа). — Т.: 1945–1948.
4. Бертелс Е. Э. Навоий и Джами. — М.: Наука, 1965. — С. 455.

MUNDARIJA

Negmatova Arofatxon Muxtarovna

METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR	3	8
---	---	---

Buranova Dilduzaxon Anvarovna

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	9	14
---	---	----

Баранова Татьяна Анатольевна

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА	15	19
---	----	----

Davlatov U.X., Parmanova P.T., Eshqo'ziyev D.D.

GLOBALASHUV SHAROITIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL TAMOIILLARI	20	24
--	----	----

Mo'minova Nilufar Abduraxobovna

ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RISIDA	25	31
---	----	----

Djalilova Dilnozaxon Obidjanovna

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING METODIK TA'MINOTI	32	37
--	----	----

Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ADAPTIV O'QUV TIZIMLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	38	40
--	----	----

Zulunova Mokhlaroym Abdurashid qizi, Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

OLIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISHDA BLENDED LEARNING VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI	41	46
---	----	----

Душабаева Гуласал Муталибовна

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ	47	50
--	----	----

Баранова Татьяна Анатольевна

МЕТОД CASE-STUDY КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	51	56
---	----	----

Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi

TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	57	62
--	----	----

B.K.Mamadaliyev

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI "KREATIV TEACHER" RAQAMLI TA'LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA	63	68
---	----	----

